

20-Aprel, 2026-yil

**INTELLEKTUAL MULK OBEKTLARI KESIMIDA MULKIY VA SHAXSIY
NOMULKIY HUQUQLAR MUNOSABATLAR TUSHUNCHASI VA ULARNING
AHAMIYATI**

Ilmiy rahbar Y.f.d, v.b.professor A.A.Kasimova

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti Yurisprudensiya Biznes huquqi magistratura talabasi

Sharofiddinov Zavqiddin

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada intellektual mulk obyektlari kesimida mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning nazariy-huquqiy asoslari hamda ularning fuqarolik-huquqiy tizimdagi o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqotda intellektual mulk huquqining dualistik tabiati, ya’ni iqtisodiy (mulkiy) va shaxsiy-ma’naviy (nomulkiy) huquqlar birligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida mualliflik huquqlarining himoyasi, plagiat va noqonuniy foydalanish muammolari hamda xalqaro va milliy huquqiy tajriba qiyosiy tahlil qilingan.*

Tadqiqot natijasida shaxsiy nomulkiy huquqlarning ustuvor ahamiyati, mulkiy huquqlarning esa iqtisodiy muomaladagi o‘rni ilmiy asosda ochib berildi. Shuningdek, intellektual mulk sohasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Mazkur maqola intellektual mulk huquqi nazariyasi va amaliyotini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Intellektual mulk, mualliflik huquqi, mulkiy huquqlar, shaxsiy nomulkiy huquqlar, huquqiy muhofaza, raqamli iqtisodiyot, plagiat, patent huquqi, fuqarolik huquqi, WIPO, TRIPS, innovatsiya, mualliflik daxlsizligi.*

KIRISH

XXI asrda globallashev jarayonlarining jadallashuvi, raqamli iqtisodiyotning shakllanishi hamda innovatsion taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishga aylanishi intellektual mulk munosabatlarini zamonaviy huquq tizimining eng muhim institutlaridan biri sifatida namoyon etmoqda. Bugungi kunda ilm-fan, texnologiya, adabiyot, san‘at, sanoat va axborot-kommunikatsiya sohalarida yaratilayotgan intellektual mahsulotlar jamiyatning iqtisodiy salohiyati, madaniy taraqqiyoti hamda davlatning raqobatbardoshligini belgilovchi strategik resursga aylanib bormoqda. Shu bois intellektual faoliyat natijalarini huquqiy muhofaza qilish, ularning mualliflari hamda huquq egalari manfaatlarini himoya etish masalasi xalqaro va milliy huquq tizimida alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Intellektual mulk obyektlari bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar murakkab va ko‘p qirrali tizimni tashkil etadi. Mazkur tizimda mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlar o‘zaro chambarchas bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, mualliflik huquqi, turdosh huquqlar, patent huquqi, tovar belgilari, sanoat namunalari va boshqa intellektual mulk obyektlari doirasida muallifning iqtisodiy manfaatlari bilan uning shaxsiy-ma’naviy manfaatlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash zamonaviy huquqshunoslikning muhim

20-Aprel, 2026-yil

nazariy va amaliy masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki intellektual faoliyat mahsuli nafaqat iqtisodiy qiymatga, balki muallif shaxsiyati, obro‘si, ijodiy daxlsizligi va nomi bilan bog‘liq bo‘lgan ma‘naviy qadriyatlarga ham ega.

Shaxsiy nomulkiy huquqlar muallifning o‘z asari bilan uzviy bog‘liqligini ifodalab, uning mualliflik nomini e‘tirof etish, asarning daxlsizligini saqlash hamda muallif sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilishga xizmat qiladi. Mulkiy huquqlar esa intellektual faoliyat natijasidan foydalanish, uni tasarruf etish, daromad olish hamda iqtisodiy manfaatlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Shu jihatdan mazkur huquqlar o‘rtasidagi nisbat, ularning o‘zaro ta‘siri va huquqiy tabiati masalalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasida ham intellektual mulkni huquqiy muhofaza qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilib, so‘nggi yillarda ushbu sohaga oid normativ-huquqiy baza takomillashtirilmoqda. Xususan, fuqarolik qonunchiligini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga mos huquqiy mexanizmlarni joriy etish hamda intellektual mulk obyektlarini himoya qilish samaradorligini oshirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq amaliyotda mualliflik huquqlarining buzilishi, noqonuniy foydalanish, plagiat, raqamli muhitdagi huquqbuzarliklar hamda mulkiy va nomulkiy huquqlar chegarasining aniq belgilanmaganligi bilan bog‘liq muammolar hanz mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Mazkur ilmiy maqolaning maqsadi intellektual mulk obyektlari kesimida mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlar munosabatlarining nazariy-huquqiy mohiyatini ochib berish, ularning o‘zaro bog‘liqligi va farqli jihatlarini tahlil qilish, milliy hamda xalqaro huquqiy tajriba asosida mazkur huquqlarning ahamiyatini yoritishdan iboratdir. Shuningdek, maqolada intellektual mulk sohasidagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni takomillashtirishga oid ilmiy asoslangan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish ko‘zda tutiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Intellektual mulk huquqi zamonaviy huquqshunoslikning eng murakkab va dinamik rivojlanayotgan institutlaridan biri sifatida milliy hamda xalqaro miqyosda ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ayniqsa, intellektual mulk obyektlari doirasida mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarning o‘zaro munosabati, ularning huquqiy tabiati hamda amaliy qo‘llanish mexanizmlarini o‘rganish ilmiy izlanishlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu masala bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari intellektual mulk huquqining nazariy asoslarini shakllantirishda muhim metodologik manba vazifasini bajaradi.

Xalqaro huquqshunos olimlardan A.P. Sergeev, E.A. Sukhanov, V.A. Dozortsev, I.A. Zenin kabi tadqiqotchilar intellektual mulkning fuqarolik-huquqiy tabiatini chuqur tahlil qilib, muallifning iqtisodiy manfaatlari bilan uning shaxsiy-ma‘naviy manfaatlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ilmiy asoslab berganlar. Ularning ilmiy qarashlarida mualliflik huquqining dualistik tabiati, ya‘ni mulkiy va nomulkiy elementlarning yagona huquqiy tizim sifatida mavjudligi alohida ta‘kidlanadi. Shuningdek, WIPO (World Intellectual

20-Aprel, 2026-yil

Property Organization) hamda TRIPS bitimi doirasidagi xalqaro normalarda ham intellektual mulk obyektlarini himoya qilishda muallifning shaxsiy huquqlari va iqtisodiy manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash zarurligi e‘tirof etilgan.

O‘zbekistonlik olimlardan F. Otaxo‘jayev, M.X. Rustambayev, Sh. Sirojiddinov, U. Rahmonqulov va boshqa huquqshunoslarning ilmiy ishlari milliy qonunchilik doirasida intellektual mulk huquqining rivojlanish tendensiyalarini yoritishga xizmat qilgan. Mazkur tadqiqotlarda mualliflik huquqi obyektlari, patent huquqi, tovar belgilarining huquqiy maqomi hamda fuqarolik-huquqiy himoya mexanizmlari atroflicha tahlil etilgan. Shu bilan birga, ayrim ilmiy ishlarda raqamli texnologiyalar rivoji sharoitida intellektual mulk obyektlarining noqonuniy tarqatilishi, plagiat va mualliflik huquqi buzilishlari bilan bog‘liq muammolar ham tadqiq qilingan.

Tahlil etilgan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, intellektual mulk obyektlari bo‘yicha mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarning o‘zaro aloqadorligi masalasi yetarli darajada o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning zamonaviy raqamli muhitdagi transformatsiyasi, iqtisodiy va ma‘naviy manfaatlar muvozanatini ta‘minlash mexanizmlari hamda milliy qonunchilikdagi ayrim kolliziyalarni bartaraf etish masalalari qo‘shimcha ilmiy tadqiqotlarni talab etadi. Ayniqsa, intellektual mulkning tijoratlashuvi jarayonida muallifning shaxsiy huquqlarini saqlab qolish, ularning daxlsizligini ta‘minlash va xalqaro standartlarga mos huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida umumilmiy va maxsus ilmiy tadqiqot metodlaridan kompleks ravishda foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini dialektik yondashuv tashkil etib, u orqali intellektual mulk obyektlariga oid mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarning rivojlanish tendensiyalari hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi tizimli ravishda tahlil qilindi. Shuningdek, qiyosiy-huquqiy metod yordamida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi xalqaro huquq normalari va xorijiy davlatlar tajribasi bilan solishtirildi. Formal-yuridik metod asosida intellektual mulk sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuni va huquqiy mohiyati tahlil etildi.

Bundan tashqari, tizimli tahlil metodi orqali intellektual mulk obyektlarining fuqarolik-huquqiy tizimdagi o‘rni hamda mulkiy va nomulkiy huquqlarning funksional xususiyatlari o‘rganildi. Statistik va empirik tahlil usullari yordamida mualliflik huquqi buzilishlari, plagiat holatlari va intellektual mulk bilan bog‘liq nizolarning amaliy ko‘rsatkichlari umumlashtirildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy xolislik, mantiqiy izchillik, obyektivlik va kompleks yondashuv tamoyillariga qat‘iy amal qilindi. Mazkur metodologik yondashuv maqola mavzusining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur ochib berish hamda ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida intellektual mulk obyektlari doirasida mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarning o‘zaro munosabatlari nazariy-huquqiy hamda amaliy jihatdan kompleks tahlil qilinib, ularning fuqarolik-huquqiy tizimdagi o‘rni va ahamiyatiga oid bir qator ilmiy natijalarga erishildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, intellektual mulk huquqining o‘ziga xosligi aynan unda iqtisodiy manfaatlar bilan shaxsiy-ma‘naviy

20-Aprel, 2026-yil

manfaatlarning uzviy birligida namoyon bo‘ladi. Mazkur ikki institut bir-birini to‘ldiruvchi huquqiy mexanizm sifatida amal qilsa-da, ularning huquqiy tabiati, amalga oshirish shakli va himoya qilish usullari jihatidan muayyan farqli xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi.

Tahlillar natijasida mualliflik huquqi obyektlarida shaxsiy nomulkiy huquqlar ustuvor ahamiyat kasb etishi asoslab berildi. Chunki muallifning nomga bo‘lgan huquqi, asar daxlsizligi, mualliflikni e‘tirof etish kabi huquqlar bevosita shaxs bilan bog‘liq bo‘lib, ular boshqa shaxsga o‘tkazilmaydi hamda muddatsiz huquqiy himoya ostida bo‘ladi. Shu bilan birga, mulkiy huquqlar esa iqtisodiy muomalaga kirishish xususiyatiga ega bo‘lib, ular litsenziya, shartnoma yoki boshqa fuqarolik-huquqiy bitimlar asosida boshqa subyektlarga o‘tkazilishi mumkinligi aniqlandi. Mazkur holat intellektual mulk huquqining murakkab dualistik tabiati mavjudligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalar rivojlanishi intellektual mulk obyektlariga oid huquqiy munosabatlarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatayotgani aniqlandi. Xususan, internet va sun‘iy intellekt texnologiyalarining keng qo‘llanilishi mualliflik obyektlaridan noqonuniy foydalanish, plagiat, kontentni ruxsatsiz tarqatish kabi huquqbuzarliklarning ko‘payishiga sabab bo‘layotgani kuzatildi. Natijada amaldagi qonunchilikda shaxsiy nomulkiy huquqlarni raqamli muhitda himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati mavjudligi asoslandi. Ayniqsa, elektron platformalarda muallif nomini ko‘rsatish, asar yaxlitligini saqlash va muallif roziligisiz o‘zgartirishlarning oldini olishga qaratilgan huquqiy kafolatlarni kuchaytirish dolzarb masala sifatida baholandi.

Qiyosiy-huquqiy tahlillar asosida xalqaro huquq normalari hamda rivojlangan davlatlar tajribasida muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlariga alohida ustuvorlik berilishi aniqlandi. Xususan, Yevropa davlatlari qonunchiligida muallif sha‘ni va ijodiy daxlsizligini himoya qilish mexanizmlari ancha rivojlangan bo‘lib, bu amaliyot milliy qonunchilikni takomillashtirish uchun muhim tajriba vazifasini bajarishi mumkinligi qayd etildi. Shu bilan birga, ayrim xorijiy davlatlarda intellektual mulk obyektlarining iqtisodiy aylanishi bilan bog‘liq munosabatlar aniq va tizimli tartibga solinganligi ularning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qilayotgani aniqlandi.

Tadqiqot natijalari asosida O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan bir qator ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi. Jumladan, raqamli muhitda mualliflik huquqlarini himoya qilish bo‘yicha maxsus huquqiy mexanizmlarni joriy etish, elektron dalillar institutini rivojlantirish, plagiat uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish hamda muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlarini himoya qilishning protsessual kafolatlarni mustahkamlash zarurligi asoslab berildi. Shuningdek, intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish jarayonida muallif manfaatlari va investor manfaatlari o‘rtasidagi huquqiy muvozanatni ta‘minlashga qaratilgan normativ mexanizmlarni ishlab chiqish lozimligi ta‘kidlandi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari kesimida mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarning o‘zaro munosabatlari zamonaviy fuqarolik huquqining muhim instituti ekanligini ko‘rsatdi. Mazkur huquqlar o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash nafaqat muallif va huquq egalarning manfaatlarini himoya qilish, balki innovatsion

20-Aprel, 2026-yil

iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, ilmiy-ijodiy faoliyatni rag‘batlantirish hamda jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi.

MUHOKAMA

Intellektual mulk huquqi zamonaviy fuqarolik-huquqiy munosabatlarning eng murakkab va dinamik rivojlanayotgan institutlaridan biri sifatida nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, madaniy va ma‘naviy ahamiyatga ham ega. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, intellektual mulk obyektlari doirasida mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarning o‘zaro munosabati klassik mulk huquqidan tubdan farq qiluvchi murakkab huquqiy konstruksiyani tashkil etadi. Chunki moddiy mulk obyektlaridan farqli ravishda intellektual faoliyat mahsuli bir vaqtning o‘zida ham iqtisodiy qiymat, ham shaxsiy-ma‘naviy qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan mazkur huquqlarni bir-biridan mutlaq ajratilgan holda emas, balki o‘zaro uzviy bog‘liq yagona huquqiy tizim sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan asosli ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida aniqlangan muhim jihatlardan biri shundaki, intellektual mulk obyektlari bo‘yicha shaxsiy nomulkiy huquqlar muallifning individual ijodiy shaxsiyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ular insonning konstitutsiyaviy huquqlari bilan chambarchas aloqador hisoblanadi. Mualliflikni tan olish, muallif nomini ko‘rsatish, asar daxlsizligini ta‘minlash kabi huquqlar nafaqat fuqarolik-huquqiy, balki ma‘naviy-axloqiy ahamiyatga ham ega. Shu sababli mazkur huquqlarni iqtisodiy manfaatlar bilan cheklash yoki ularni to‘liq tijoratlashtirish muallif shaxsiyatining huquqiy daxlsizligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar sharoitida sun‘iy intellekt, generativ platformalar va internet resurslari orqali asarlardan keng foydalanilayotgani muallifning shaxsiy huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda.

Muhokama jarayonida xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatdiki, rivojlangan davlatlarda intellektual mulk huquqi tizimi innovatsion iqtisodiyotning muhim tayanchi sifatida qaraladi. Xususan, AQSh huquq tizimida mulkiy huquqlar iqtisodiy muomala va investitsion faoliyatni rag‘batlantirish vositasi sifatida ustuvor ahamiyat kasb etsa, Yevropa kontinental huquq tizimida muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlariga nisbatan kuchli huquqiy himoya mexanizmlari shakllangan. Bu esa turli huquqiy tizimlarda intellektual mulkning turlicha konseptual yondashuv asosida rivojlanayotganini ko‘rsatadi. O‘zbekiston qonunchiligi esa mazkur ikki modelning muayyan elementlarini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lsa-da, amaliyotda ayrim normativ-huquqiy kolliziyalar saqlanib qolmoqda.

Xususan, amaldagi qonunchilikda mulkiy huquqlarni iqtisodiy muomalaga kiritish mexanizmlari nisbatan aniq belgilangan bo‘lsa-da, shaxsiy nomulkiy huquqlarni raqamli muhitda himoya qilish masalalari yetarlicha takomillashmaganligi kuzatildi. Ayniqsa, elektron platformalarda mualliflikni identifikatsiya qilish, raqamli plagiatni aniqlash, kontentning noqonuniy nusxalanishini oldini olish hamda muallif roziligisiz o‘zgartirishlarga qarshi samarali huquqiy mexanizmlar yetarli darajada rivojlanmagan. Bu holat esa intellektual mulk obyektlariga nisbatan huquqbuzarliklar sonining ortishiga hamda mualliflarning iqtisodiy va ma‘naviy manfaatlariga zarar yetkazilishiga olib kelmoqda.

20-Aprel, 2026-yil

Tadqiqot natijalari asosida shunday ilmiy xulosaga kelish mumkinki, intellektual mulk huquqining samarali ishlashi faqatgina mulkiy manfaatlarni himoya qilish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Mazkur tizimda muallif shaxsiyatining daxlsizligi, ijodiy erkinlik, ilmiy va madaniy merosni asrash kabi tamoyillar ham ustuvor ahamiyat kasb etishi zarur. Chunki intellektual faoliyat natijasining asosiy manbai inson tafakkuri va ijodiy salohiyati hisoblanadi. Demak, muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlarini himoya qilish aslida jamiyatning intellektual rivojlanishini himoya qilish bilan tengdir.

Shuningdek, muhokama davomida intellektual mulk huquqining iqtisodiy taraqqiyot bilan uzviy bog‘liqligi ham ilmiy asoslandi. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida patentlar, mualliflik obyektlari, dasturiy mahsulotlar, tovar belgilari va boshqa intellektual resurslar davlatning strategik kapitaliga aylanmoqda. Shu sababli mazkur obyektlarni huquqiy himoya qilish darajasi mamlakatning investitsion jozibadorligi va xalqaro raqobatbardoshligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Intellektual mulk huquqlarining yetarli darajada kafolatlanmasligi esa innovatsion faoliyatning pasayishiga, “miya oqimi”ning kuchayishiga hamda ilmiy-texnologik rivojlanish sur’atlarining sekinlashishiga olib kelishi mumkin.

Mazkur ilmiy muhokamalar asosida O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarurligi asoslandi. Jumladan, raqamli muhitga mos zamonaviy huquqiy mexanizmlarni joriy etish, xalqaro standartlarga uyg‘un qonunchilikni shakllantirish, sud amaliyotida intellektual mulk nizolarini ko‘rib chiqish bo‘yicha maxsus yondashuvlarni rivojlantirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish muhim strategik vazifa sifatida e’tirof etildi. Shu bilan birga, oliy ta’lim tizimida intellektual mulk madaniyatini shakllantirish, yosh tadqiqotchilar va ijodkorlarda mualliflik huquqiga hurmat hissini rivojlantirish ham istiqboldagi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida baholandi.

XULOSA

Intellektual mulk obyektlari kesimida mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tahlil qilish natijalari ushbu institutning fuqarolik huquqi tizimida alohida, murakkab va ko‘p qatlamli huquqiy konstruktsiya sifatida shakllanganini ko‘rsatdi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, intellektual mulk huquqi o‘z tabiatiga ko‘ra dualistik xususiyatga ega bo‘lib, bir tomondan iqtisodiy muomalada ishtirok etuvchi mulkiy huquqlarni, ikkinchi tomondan esa muallif shaxsiyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan shaxsiy nomulkiy huquqlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu ikki turdagi huquqlar o‘zaro dialektik birlikda mavjud bo‘lib, bir-birini to‘ldiruvchi va muvozanatlashtiruvchi tizim sifatida amal qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, shaxsiy nomulkiy huquqlar intellektual mulk tizimida asosiy, ustuvor va daxlsiz xarakterga ega bo‘lib, ular muallifning ijodiy shaxsiyati, ma’naviy dunyosi hamda ijodiy erkinligini huquqiy jihatdan himoya qilishga xizmat qiladi. Mulkiy huquqlar esa asosan iqtisodiy manfaatlarni ro‘yobga chiqarish, intellektual faoliyat natijalaridan foydalanish va ularni fuqarolik muomalasiga kiritish imkonini beruvchi huquqiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli mazkur ikki huquq turini bir-biridan

ajratib emas, balki yagona tizimning o‘zaro bog‘liq elementlari sifatida tahlil qilish ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy texnologiyalar rivoji intellektual mulk huquqining mazmuni va qo‘llanish doirasiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatayotgani aniqlandi. Internet muhitida asarlarning keng tarqalishi, sun‘iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi hamda raqamli kontent aylanishining tezlashuvi sharoitida mualliflik huquqlarini, xususan shaxsiy nomulkiy huquqlarni samarali himoya qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa milliy qonunchilikni zamonaviy texnologik muhit talablariga mos ravishda takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Qiyosiy-huquqiy tahlillar asosida rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, intellektual mulkni huquqiy himoya qilish darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda innovatsion iqtisodiyot barqaror rivojlanadi, ijodiy faoliyat rag‘batlantiriladi hamda ilmiy-texnik taraqqiyot sur‘atlari tezlashadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasida ham intellektual mulk sohasini rivojlantirish, muallif huquqlarini samarali himoya qilish va huquqiy kafolatlarni kuchaytirish ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Umumiy xulosa sifatida ta‘kidlash joizki, intellektual mulk obyektlari kesimida mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlar o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash nafaqat huquqiy tizim barqarorligi, balki jamiyatning madaniy, ilmiy va iqtisodiy taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu huquqlar uyg‘unligi muallif manfaatlarini himoya qilish, ijodiy faoliyatni rag‘batlantirish hamda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy huquqiy omillaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. Shu bois intellektual mulk huquqini yanada takomillashtirish, uni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish va xalqaro standartlarga moslashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024-yilgi tahrir.
3. “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.
4. “Patent to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.
5. “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqish joyi nomlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.
6. TRIPS Agreement (Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights), 1994.
7. WIPO Copyright Treaty (WCT), 1996.
8. Bern Convention for the Protection of Literary and Artistic Works, 1886 (Paris Act).